



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 344 sahifa,  
16-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari .....	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari .....	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari .....	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati .....	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni .....	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi .....	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari .....	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv .....	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati .....	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida) .....	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities .....	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi .....	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari .....	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов) .....	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students .....	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish .....	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari .....	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari .....	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari .....	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati .....	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ .....	95
<b>Мансурова Гульмира Рафазловна</b>	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики .....	101
<b>Рауфова Озода</b>	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari .....	105
<b>Choriyeva Dildora Ismat qizi</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida .....	109
<b>Tangriyev Abdulkarim Tovashevich</b>	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
<b>Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi</b>	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish .....	120
<b>Kozimova Mehriniso Akbarali qizi</b>	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
<b>O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi</b>	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi .....	129
<b>Sharipov Nodir Botir o'g'li</b>	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
<b>Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir</b>	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari .....	138
<b>Aliyev Samariddin Murotali o'g'li</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	142
<b>Boymurodova Sadoqat Istam qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
<b>Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna</b>	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri .....	151
<b>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi</b>	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati .....	154
<b>Gulboyev Akbar Tuxtyayevich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish .....	158
<b>Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi</b>	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application .....	161
<b>Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich</b>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik .....	166
<b>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</b>	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry .....	169
<b>Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
<b>Mahbuba Yusupova Rustam qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
<b>Nasimova N. Q.</b>	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry .....	182
<b>Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich</b>	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida .....	187
<b>Ochilova Gulnoza Odilovna</b>	

O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi .....	191
<a href="#">Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li</a>	
Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli .....	196
<a href="#">Salomova Nargiza Sattorovna</a>	
Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili.....	200
<a href="#">Shukurova Nargiza Ikramovna</a>	
Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish .....	205
<a href="#">Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi</a>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish...	210
<a href="#">Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna</a>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari .....	216
<a href="#">Uralova Nurxon Maxadovna</a>	
Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni.....	220
<a href="#">Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna</a>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari .....	223
<a href="#">Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi</a>	
Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology .....	226
<a href="#">Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz</a>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati .....	229
<a href="#">Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich</a>	
Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи .....	233
<a href="#">Маматкулов Равшанжон Солижонович</a>	
Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной" .....	237
<a href="#">Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек</a>	
Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	240
<a href="#">Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi</a>	
Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions .....	248
<a href="#">Gulnoza Aslamovna Azimkulova</a>	
Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish .....	251
<a href="#">Ergasheva Nigora G'ayratovna</a>	
Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education .....	259
<a href="#">Khudoyarova Ziyoda Maratovna</a>	
Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari.....	264
<a href="#">Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi</a>	
Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari.....	269
<a href="#">Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li</a>	
Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi .....	273
<a href="#">Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi</a>	
Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 <sup>th</sup> -Century English and Karakalpak Works).....	279
<a href="#">Najimova Perizad Arslanbay qizi</a>	
Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	283
<a href="#">Shodiyeva Charos Ravshan qizi</a>	
Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari .....	286
<a href="#">Xaytova Farida Kuchkarovna</a>	



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati .....	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari .....	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompEtensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari .....	319
<i>Omonova Sarvinoz</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis .....	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish .....	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otabek Tualovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari .....	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы .....	337
<i>Абдусаламова Адига Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком .....	340
<i>Касимов А. Б.</i>	

# TA'LIMIY O'YINLAR VOSITASIDA KO'ZI OJIZ BOLALAR NUTQIDAGI KAMCHILIKLARNI KORREKSIYALASHGA QARATILGAN MASHG'ULOTLARINING ASOSIY BOSQICHLARI

Xaytova Farida Kuchkarovna

SamDPI Pedagogika kafedrası assistenti

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashda ta'limiy o'yinlardan foydalalanishning asoslari yoritilgan. Tadqiqotda ko'zi ojiz bolalarning nutqiy rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinib, ta'limiy o'yinlarning korreksion imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, korreksion mashg'ulotlarning diagnostik, motivatsion, shakllantiruvchi va nazorat-baholash bosqichlari tavsiflangan. Ta'limiy o'yinlarga asoslangan metodikaning nutqning fonetik-fonematik, leksik va grammatik tomonlarini rivojlantirishdagi samaradorligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'zi ojiz bolalar, nutq kamchiliklari, korreksiya, ta'limiy o'yinlar, tiflogopediya, korreksion mashg'ulotlar, nutq rivojlanishi, logopedik ta'sir.

**Abstract:** This article highlights the foundations of using educational games in correcting speech disorders in visually impaired children. The study analyzes the specific features of speech development in visually impaired children and reveals the corrective potential of educational games. It also describes the diagnostic, motivational, formative, and control-assessment stages of correctional classes. The effectiveness of a methodology based on educational games in developing the phonetic-phonemic, lexical, and grammatical aspects of speech is substantiated.

**Key words:** visually impaired children, speech disorders, correction, educational games, typhlogopedics, correctional classes, speech development, speech therapy intervention.

**Аннотация:** В данной статье освещены основы использования дидактических игр при коррекции речевых нарушений у незрячих детей. В исследовании проанализированы особенности речевого развития незрячих детей, раскрыты коррекционные возможности дидактических игр. Также описаны диагностический, мотивационный, формирующий и контрольно-оценочный этапы коррекционных занятий. Обоснована эффективность методики, основанной на дидактических играх, в развитии фонетико-фонематической, лексической и грамматической сторон речи.

**Ключевые слова:** незрячие дети, речевые нарушения, коррекция, дидактические игры, тифлологопедия, коррекционные занятия, речевое развитие, логопедическое воздействие.

## KIRISH

Jahon miqyosida jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, xususan, ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash zamonaviy maxsus pedagogikaning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, bolalikdan ko'zi ojizlik muloqot va kognitiv faoliyatning cheklanishiga, bu esa o'z navbatida nutqiy funksiyalarning tizimli ravishda ortda qolishiga sabab bo'lmoqda.<sup>1</sup> Shu bois, xalqaro miqyosda ko'zi ojiz bolalarning nutqiy nuqsonlarini erta yoshdan korreksiyalashda an'anaviy metodlardan voz kechib, interfaol va kompensator imkoniyatlarni faollashtiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1 World report on vision. – Geneva: World Health Organization, 2019. – 160 p.



Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasini variativ hamda moslashuvchan dasturlar asosida takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi<sup>2</sup> va Dakar deklaratsiyasi tamoyillaridan kelib chiqib, ko'zi ojiz kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishda "o'yin orqali o'qitish" metodikasi eng samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda.<sup>3</sup> Dunyo pedagogika amaliyotida ta'limiy o'yinlar vositasida bolalarning sensor tajribasini boyitish va tahliliy-sintetik faoliyatini rivojlantirish orqali nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishning metodologik asoslarini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga sifatli ta'lim berish va jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>4</sup> hamda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid qarorlari ijrosini ta'minlash doirasida maxsus maktab-internatlarda ta'lim sifati yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ayniqsa, 1–2-sinf ko'zi ojiz o'quvchilarining nutqidagi kamchiliklarni ta'limiy o'yinlar vositasida korreksiyalash, ularning lug'at boyligini oshirish va muloqot madaniyatini shakllantirish bo'yicha metodik bazani takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalash masalasini xalqaro, huquqiy-me'yoriy va ilmiy-metodik jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ko'rish muammolariga oid hisoboti bolalarda ko'rish imkoniyati cheklanishining nutqiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini tushuntirish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi hamda Dakar harakatlar dasturi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun teng imkoniyat, inklyuziv yondashuv va sifatli ta'lim tamoyillarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-son<sup>5</sup> qarori esa mamlakatimizda maxsus va inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirishning me'yoriy asoslarini ko'rsatib beradi.

Sh.E. Toxtiyarova va Sh.D. Aripova tadqiqotlarida korreksion-pedagogik strategiyalar, bolalar nutqining grammatik qurilishini rivojlantirish hamda maxsus ta'lim sharoitida individual yondashuvning ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan.

Shuningdek, rus tilidagi metodik qo'llanma ko'zi ojiz bolalar bilan amaliy logopedik mashg'ulotlarni tashkil etishda mimika, imo-ishora, o'yin va drammatizatsiya metodlaridan foydalanish imkoniyatlarini boyitadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

**Tadqiqotning obyekti:** ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalash jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalash mashg'ulotlarining mazmuni, metodlari va bosqichlari.

**Tadqiqot maqsadi:** ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalash mashg'ulotlarining ilmiy-metodik bosqichlarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini asoslash.

**Tadqiqot vazifalari:**

- ko'zi ojiz bolalar rivojlanishining psixologik-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish;
- ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalash bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish;
- ta'limiy o'yinlarning korreksion imkoniyatlarini aniqlash;
- ta'limiy o'yinlarga asoslangan korreksion mashg'ulotlarning bosqichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari: nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, logopedik diagnostika, suhbat, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil.

2 Конвенция ООН о правах инвалидов. Принята резолюцией 61/106 Генеральной Ассамблеи от 13 декабря 2006 года. – Нью-Йорк: ООН, 2006.

3 The Dakar Framework for Action. Education for All: Meeting our Collective Commitments. – Paris: UNESCO, 2000.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020-y., 07/20/4860/1364-son.

5 <https://lex.uz/docs/-5044711?query=2014>

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'zi ojiz bolalar bilan korreksion ishni tashkil etishda ulardagi individual psixologik-pedagogik va jismoniy imkoniyatlarni hisobga olish talab etiladi. Bu borada Sh.E. Toxtiyarova ta'limning universal dizaynidan foydalanish (TUD) - ushbu yondashuvning individual xususiyatlardan qat'i nazar, barcha o'quvchilar uchun qulay va tushunarli metodlarni, differensial ko'rsatmalarni qo'llash, kollaborativ yondashuv, xulq-atvorni boshqarish hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirishni nazarda tutishini o'z izlanishida keltirib o'tgan.<sup>6</sup> "O'zbekiston-2030" taraqqiyot strategiyasiga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki, yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, til o'rganishi va raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishi mamlakat kelajagini belgilabgina qolmay, balki uning dunyo hamjamiyatidagi nufuzini turli sohalarda yuksaklarga olib chiqadi.

Nutq murakkab psixofiziologik tizim hisoblanadi. Nutqning lingvistik asosini esa til, uning tizim sifatidagi barcha komponentlari tashkil etadi. Lingvistika tilni bir butun tizim sifatida qamrab olib, uning fonetik-fonematik, leksik-grammatik komponentlarini o'rganishni ko'zda tutadi.

Bolalar nutqi maromida bo'lishi uchun bosh miya po'stlog'idagi nutq markazlari va sezgi organlari ham yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Bu o'rinda, ayniqsa, nutqni harakatga keltiruvchi va nutqni eshituvchi analizatorlarning rivojlanishi juda muhim.<sup>7</sup> Jismonan va aqlan me'yorda rivojlanayotgan bolaning nutqi uch yoshda to'liq rivojlanib, atrofdagilar bilan kommunikativ aloqani o'rnatish bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Tadqiqotimiz doirasida ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida "ta'limiy o'yin" tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:

"Ta'limiy o'yinlar – ko'zi ojiz bolalarning sensor-kognitiv imkoniyatlarini faollashtirishga yo'naltirilgan, nutqiy nuqsonlarni bartaraf etish va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning kompleks metodik vositasi bo'lib, u eshitish, taktil va kinestetik analizatorlar orqali so'zning predmetli obrazini tiklashga hamda nutqiy muloqotdagi verbalizmni kompensatsiyalashga xizmat qiluvchi maxsus tashkil etilgan faoliyat shaklidir".

Ko'rishida nuqsoni bor bola uchun o'yin korreksion-tiklash ishlari nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Didaktik o'yinda har bir bola ma'lum bir vaziyatda yoki buyumlar bilan mustaqil harakat qilish, o'z tajribasini orttirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda uning barcha saqlanib qolgan analizatorlari rivojlanadi, ya'ni sensor tarbiya uchun sharoit yaratiladi.

Ko'rishida chuqur nuqsonlari bo'lgan bolalarda nutqiy faoliyatdagi kamchiliklarni bartaraf etish ishlari, avvalo, nutqiy bo'lmagan vositalar ustida ishlashdan boshlanishi lozim. Bolalarni o'z hissiy holatlarini to'g'ri namoyon etishga o'rgatishda logoped lablar, til va yonoq mushaklarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni olib boradi. Davolovchi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bo'yin, yelka, qo'l, oyoq va gavda mushaklarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni kiritish foydalidir. Muhim jihatlardan biri - logopedning musiqa rahbari (ritmika o'qituvchisi) bilan hamkorlikda olib boradigan faoliyati bo'lib, bunda plastik harakatlar orqali insonning turli kayfiyatlarini ifodalash, hayvonlar harakatlariga taqlid qilish va shu kabilarga o'rgatiladi.

Nutqiy bo'lmagan muloqot vositalarini shakllantirishga qaratilgan barcha ishlar bolalarda asta-sekin mimika va imo-ishoralar insonning atrofdagilarga bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi vosita ekanligini anglashga yo'naltirilishi lozim. Shuningdek, jamiyatda o'zini tutish uslubi ularning boshqalar tomonidan qanchalik to'g'ri tushunilishiga ta'sir qilishini bolalar anglab yetishlari zarur.

O'qitish jarayoni to'rtta asosiy bosqichdan iborat (V.Z. Deniskina bo'yicha):

- mushaklardagi taranglikni kamaytirish yoki, aksincha, ularning tonusini oshirish;
- mimika, imo-ishoralar va holatlar bilan tanishtirish;
- etyudlar orqali yuz va tana harakatlarini ifodali bajarishga o'rgatish;
- nutqiy bo'lmagan muloqot vositalarini o'yinlarga, keyinchalik esa kundalik kommunikativ faoliyatga kiritish.

**1-bosqich.** Yuz va bo'yin mushaklarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni o'qitishning birinchi va ikkinchi yillarida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ushbu mashqlar keyinchalik turli hissiy holatlarni ifodalashni o'rganishga tayyorgarlik sifatida mimik mushaklarni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Keyingi bosqichlarda bu mashqlar darslarda propedevtik maqsadda yoki jismoniy daqiqalar sifatida qo'llaniladi.

Mazkur mashqlar jismoniy va ruhiy zo'riqishni kamaytirishga, mushak tonusini me'yorlashtirishga, bolaning e'tibori va qiziqishini birgalikdagi faoliyatga jalb etishga, bolalarni faol ishlashga va o'zaro muloqotga tayyorlashga yordam beradi. Mashqlar pedagogning harakat va faoliyatlarini taqlidiy takrorlash orqali bolaga turli mushak yuklamalarini his qilish imkonini beradi; bolaning o'z sezgilariga e'tiborini yo'naltirish va uni ma'lum

6 Sh.E.Toxtiyarova Boshlang'ich sinf o'quvchilarini inklyuziv ta'limga tayyorlashning pedagogic-korreksion strategiyalarini takomillashtirish mavzusidagi (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati (16-b) T.2024-YIL

7 Sh.D.Aripova: Bolalar nutqining grammatik qurilishini rivojlantirishda korreksion-pedagogik ish tizimi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati (11-b)



vaqt ushlab turishni mashq qildirishga, ularni farqlash va taqqoslashga o'rgatadi; jismoniy harakatlarning xususiyatini aniqlashga o'rgatadi; bolaning harakat faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.<sup>8</sup>

Pedagog bolaga o'z teginishlari orqali sezgi sohasining aniqligini his qilishga yordam beradi: qo'lidan ushlab, silkitib ko'rib - "bo'shshaganmi?", orqasini silab - "qayerda zo'riqish bor?", turtib ko'rib chidamliligini tekshiradi va hokazo. Mashqlarning dozasi mashq turiga va bolalarning yoshiga qarab 5-6 martadan 1-2 daqiqagacha davom etadi.

Psixogimnastik mashqlar ketma-ketligida harakatlarning almashinuviga va xarakteri bo'yicha qarama-qarshi harakatlarni solishtirishga rioya qilish ayniqsa muhimdir: zo'riqqan - bo'shshagan, sekin - ravon, tez-tez - sekin, bo'lingan - butun, sezilar-sezilmas qimirlashlar va butunlay qotib qolishlar, gavda aylanishlari va sakrashlar, fazoda erkin harakatlanish va buyumlar bilan to'qnashuv.

**2-bosqich.** Nutqsiz muloqot vositalarini shakllantirishdan maqsad - bola tomonidan mimika va imo-ishoralarning xarakteri u ayni daqiqada muloqot qilayotgan insonlarga bo'lgan munosabat ko'rsatkichi ekanligini o'zlashtirishidir. Butun dunyoda asosiy kommunikativ imo-ishoralalar bir-biridan farq qilmaydi. Odamlar baxtli bo'lganda jilmayishadi, xafa bo'lganda qoshlarini chimirishadi, jahli chiqqanda esa nigohlari g'azabli bo'ladi.

Mimika orqali hissiy holatni aniqlash qobiliyatini qirqma shablonlar - o'ziga xos piktogrammalar yordamida mashq qildirish mumkin. Piktogramma oddiy belgilar (teskari 7 raqami, chiziqchalar va h.k.) yordamida turli hissiyotlar tasvirlangan kartochkalar to'plamidan iborat.

M.I. Chistyakova o'zining "Psixogimnastika" kitobida 5 ta piktogrammadan foydalanishni tavsiya etadi:

1. Quvnoq yuz: oval (yuz), teskari 7 raqami (burun), uchlari pastga qaragan ikkita yarim oval (qoshlar) va uchi tepaga qaragan yarim ovaldan (og'iz) iborat.
2. Xafa yuz: oval, teskari 7 raqami, tepada birlashuvchi ikkita qiya chiziqcha (qoshlar) va uchi pastga qaragan yarim ovaldan (og'iz) iborat.
3. Qo'rquv ifodasi: oval, teskari 7 raqami, tepada birlashuvchi ikkita qiya chiziqcha va doirachadan (ochilgan og'iz) iborat.
4. G'azabli yuz: oval, teskari 7 raqami, pastda birlashuvchi ikkita qiya chiziqcha va to'rtburchak yoki kichik ovaldan (vajohatli og'iz) iborat.
5. Hayratlangan yuz: oval, teskari 7 raqami ustida yuqori ko'tarilgan ikkita chiziqcha (qoshlar) va doirachadan iborat.

Shuningdek, turli kayfiyat va holatlarni (pozalarni) yetkazib berish (taqlid qilish) mashqlariga ham katta e'tibor qaratish lozim. Buning uchun muloqot jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan asosiy imo-ishora va holatlar tasvirlangan plakatlardan foydalanish mumkin: hayrat, ajablanish, quvonch, cho'chish va h.k. Bu plakatlar bolalarga tana harakati tilini tushunishga, pedagogga esa bolaning mimika va imo-ishora tilini bilishi yoki bilmasligini, ifodali harakatlarni takrorlay olishini aniqlashga yordam beradi. M.I. Chistyakova holatlar bilan tanishtirishda qog'ozdagi shartli figurachalar chizmasidan foydalanishni taklif etadi.

Bolalarni imo-ishora va holatlar bilan tanishtirishda tiflopedagog "birgalikdagi harakatlar" usulidan foydalanishi zarur, bu bolalarga kerakli holatni to'g'ri qabul qilishga yordam beradi. Pedagog bolalarni tanishtirayotgan barcha imo-ishora, holat va yuz ifodalari so'zlar bilan aniq ifodalanishi shart.

**3-bosqich.** Ifodali harakatlarni o'rgatish uchun etyudlardan foydalaniladi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning diqqati ifodalilikning biror bir komponentiga qaratiladi: "U shunchalik hayratlandiki, hatto qoshlari peshonasiga chiqib ketdi". "Hayrat" va "G'azabli bobo" turidagi etyudlarda faqat qosh va peshona uchun javobgar mushaklarni, "G'azabli sirtlon" va "Sho'r choy" etyudlarida esa faqat burun (burishtirish) va lab mushaklarini mashq qildirish lozim. Bunday mashg'ulotlar ularga yuz mushaklarining ma'lum harakatlari ma'lum kechinmalar bilan bog'liqligini anglashga yordam beradi. Shu bilan birga, bola o'z tuyg'ularini nomlashni o'rganadi. Unga qiziqish, hayrat, quvonch, g'am kabi so'zlar tushunarli bo'la boshlaydi. Pantomimikasi sust ifodalangan bolalarga yordam berish etyudlarni o'ynash, holatlar, yurish va boshqa ifodali harakatlarni ketma-ket o'rganishdan iborat. Shundan so'ng "Kim holatni yaxshiroq ko'rsatadi?", "Kim yaxshiroq yuradi?" kabi mini-tanlovlar o'tkazish mumkin. "Bu kim?" o'yinini o'ynash ham foydali.

Ifodali harakatlarga o'rgatish uchun mashqlarni tanlashda ularni uch guruhga ajratish lozim:

1. Maqsad - bolalarda o'zining va o'zgalarning hissiyotlarini tushunish, anglash va ifodali harakatlarni to'g'ri tanlash qobiliyatini rivojlantirish. Mashq shakllari turlicha bo'lishi mumkin: pantomimik topishmoqlar, o'yinlar, tomoshalar. (Hissiyotlar ro'yxati: qiziqish, quvonch, hayrat, g'am, g'azab, xafachilik, nafrat, qo'rquv, uyat, xavotir, hamdardlik, mahzunlik va h.k.)

8 Metodik qo'llanma(Ruscha)

2. Maqsad - bir-biriga nutqsiz ta'sir ko'rsata oladigan ifodali harakatlarni shakllantirish. Mashqlarga muloqotdagi sheriklarning rollarini almashishi, o'z hissiyotlarini va sherigining hissiyotlarini baholash kiradi. Bunday mashqlarda bola o'z tuyg'ulari va harakatlarini aniq ifodalashni, boshqa bolalarning munosabatlarini his qilishni (empatiya) o'rganadi.
3. Maqsad - bolalarning o'z xulq-atvori reaksiyalarini ifodali harakatlar yordamida boshqarish ko'nikmasini shakllantirish.

**4-bosqich.** Nutqsiz muloqot vositalarini shakllantirish bo'yicha korreksion ishlarni tashkil etishda syujetli-rolli o'yinlar alohida ahamiyat kasb etadi. V.Z. Deniskina ta'kidlashicha, dramatisatsiya o'yinlari (jumladan, badiiy asar syujeti asosida) ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni imo-ishora, holat va mimikalardan foydalanishga undovchi vositadir. Dramatisatsiya o'yinlari bolalarga nutqsiz muloqot andozalari va ularning o'z xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rish imkonini beradi.

Teatrlashtirish usuli ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarga o'zlarining odatiy, o'ziga xos (stereotipik) harakatlari va mimikalaridan voz kechishga hamda umumqabul qilingan muomala madaniyati, boshni tutish, qo'l harakatlari va holatlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Quyida logopedik mashg'ulotdan keltirib o'tamiz:

Ta'limiy maqsad: bolalarga mimika a'zolari (qosh, ko'z, lab, yanoq) va asosiy his-tuyg'ularni (shodlik, xafalik, hayrat) yuzda aks ettirishni o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalarda bir-birining his-tuyg'ularini tushunish, hurmat qilish, mehribonlik va do'stona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalarning yuz mimikasi orqali o'z his-tuyg'ularini ifodalash qobiliyatini, ijtimoiy ko'nikmalarini, nutqi va fantaziyasini rivojlantirish.

Kompetensiya: bolalarda yuz mimikasi orqali his-tuyg'ularini tanish va ifodalash, o'z hislarini boshqarish hamda ijtimoiy-muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish.

Dars turi: amaliy mashg'ulot, mimika orqali his-tuyg'ularni o'rgatish va rivojlantirish.


Jihozlar: ko'zgu - bolalar o'z mimikasini kuzatishi uchun; rasmlar yoki kartochkalar (turli his-tuyg'ularni ifodalovchi yuzlar); qo'g'irchoqlar yoki figuralar - his-tuyg'ularni o'yin orqali ifodalash uchun; plakat yoki ko'rgazmali qurollar; rangli qalamlar yoki bo'yoqlar – mimika bilan bog'liq chizish mashqlari uchun.

Mashg'ulotning borishi:

Tashkiliy qism (4 daqiqa):

“Kaftlar kulgisi”: bolalar bir-birining kaftlarini silab, “Xayrli kun” tilashadi.

Kirish savoli: “Bolajonlar, biz xursand bo'lsak, buni ovozymizdan tashqari yana nima bildiradi? Albatta, yuzimiz!”



O'tilgan mavzuni mustahkamlash (2 daqiqa): “Soatcha” mashqini 5 marta bajarish.

Yangi mavzu bayoni (20 daqiqa):

Yuz xaritasi bilan tanishuv (taktik bosqich): bolalar o'z yuzlarini qo'llari bilan paypaslab chiqishadi:

Qoshlar: “Qani, qoshlarimizni topamiz. Ular yuqoriga chiqsa - hayron qolamiz, bir-biriga yaqinlashsa - jahll qilamiz”.

Yanoqlar: “Yanoqlarimizni shishiramiz - pufak bo'lamiz”.

Lablar: “Lablar cheti yuqoriga ko'tarilsa - kulamiz”.



“Jonli haykallar” mashqi (asosiy metod): o‘qituvchi har bir bolaning yoniga borib, uning yuz mushaklarini “shakllantiradi”:

Shodlik: “Keling, lablarimizni cho‘zamiz, yanoqlarimizni biroz ko‘taramiz. Mana, siz hozir jilmaydingiz! Buni his qiling”.

Xafalik: “Lab burchaklarini pastga tushiramiz. Yuzimiz biroz bo‘shashadi”.

“Maska” o‘yini: bolalarga turli emotsiyalarni ifodalovchi bo‘rtma (releflı) niqoblar yoki maketlar beriladi. Bolalar barmoqlari bilan niqobdagi qosh va lab holatini aniqlab, o‘z yuzlarida o‘sha holatni takrorlashga harakat qilishadi.



Dinamik tanaffus (3 daqiqa):

“Quyosh va yomg‘ir”: o‘qituvchi “Quyosh” desa - bolalar jilmayib, qo‘llarini yuqoriga cho‘zishadi. “Yomg‘ir” desa - yuzlarini qo‘llari bilan yopib, “xafa” bo‘lishadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash (5 daqiqa):

“Ovozdan mimikaga” mashqi: o‘qituvchi turli ohangda (kulib, yig‘lab, hayron bo‘lib) gapiradi. Bolalar esa ovozga mos mimikani yuzlarida ko‘rsatishlari kerak.

Mashg‘ulotni yakunlash (3 daqiqa):

Bolalarni rag‘batlantirish.

Uyga vazifa: uyda onangizning yuzini qo‘lingiz bilan ushlab ko‘rib, u kishi jilmayganda yuz mushaklari qanday o‘zgarishini aniqlang.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, ta‘limiy o‘yinlar ko‘zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, rejalashtirish va uning samaradorligini oshiruvchi eng muhim vositalardan biri sanaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World report on vision. - Geneva: World Health Organization, 2019. - 160 p.
2. Конвенция ООН о правах инвалидов. Принята резолюцией 61/106 Генеральной Ассамблеи от 13 декабря 2006 года.- Нью-Йорк: ООН, 2006.
3. The Dakar Framework for Action. Education for All: Meeting our Collective Commitments. - Paris: UNESCO, 2000.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020-y., 07/20/4860/1364-son.
5. Sh.E.Toxtiyarova Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini inklyuziv ta‘limga tayyorlashning pedagogic-korreksion strategiyalarini takomillashtirish mavzusidagi (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati (16-b) T.2024-YIL
6. Sh.D.Aripova: Bolalar nutqining grammatik qurilishini rivojlantirishda korreksion-pedagogik ish tizimi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati (11-b)
7. Metodik qo‘llanma(Ruscha)

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.